




2021- yil yanvar oyida Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi






2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.





2021- yil yanvar


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1567,9** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **207,1** mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,9 %**ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar oyida)





2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar - jami	1 567,9	103,9
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	45,7	130,6
Moliyaviy xizmatlar	190,7	92,0
Transport xizmatlari	328,1	100,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	315,7	100,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	68,1	99,5
Savdo xizmatlari	541,3	105,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	54,0	111,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	66,5	110,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	35,8	111,1
Ijara xizmatlari	50,6	121,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	30,6	104,3
Shaxsiy xizmatlar	40,9	104,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	60,0	104,2
Boshqa xizmatlar	55,6	116,4




2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Eng yuqori ko'rsatkich

Eng past ko'rsatkich





2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar oyida ularning ulushi **34,5 %**ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zqor buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **2,0 %**ga etgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar oyida savdo xizmatlari umumiy hajmda **33,3** foizni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zqor buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan - **1,9 %**.

2021- yil yanvar oyida yuqori o'sish aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**30,6 %**), ijara sohasidagi xizmatlar (**21,7 %**), boshqa xizmatlar (**16,4 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (**11,3 %**) qayd etildi.

Moliyaviy (**8,0 %**) va yashash va ovqatlanish (**0,5 %**) sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining pasayishi kuzatildi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi - **228,3 %**. Ko'chmas mulk bog'liq xizmatlarda biroz o'sish kuzatilgan - **0,5 %**.



2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogo bo'linadi.

2021- yil yanvar oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **34,5 %** ni tashkil etdi, bu esa **541,3** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar oyida ularning hajmi **453,3** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **33,3 %** iga to'g'ri kelgan.


Savdo xizmatlari

2020- y. yanvar

Xizmatlar hajmi
453,3 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
101,7 %

Ulushi
33,3 %



2021 y. yanvar

Xizmatlar hajmi
541,3 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
105,1 %

Ulushi
34,5 %




2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar oyida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i **60,2 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar oyida)

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

10,0 %



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

60,2 %

29,8 %



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar oyida chakana savdo ulushi **60,2 %** ga yetdi.



2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar oyida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **190,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar oyida ularning hajmi **200,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

O'tgan davda ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **12,2** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar oyida ularning ulushi **14,7** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **9,6** mlrd. so'mga kamayishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning kamayishi **8,0** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar oyida ularning o'sish sur'ati **125,4** % ga yetgan.



2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **5,0 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2021- yil yanvar oyida)



Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmining **91,8 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,5 %** ga to'g'ri kelgan.



2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yil yanvar oyida)

2020- y. yanvar

2021 y. yanvar

34,6
mlrd. so'm

121,0 %

2,5 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

11,1 mlrd. so'mga

45,7
mlrd. so'm

130,6 %

2,9 %



2021- yil yanvar



Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshi aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **91,4 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2020- y. yanvar

2021- y. yanvar



 **Telekommunikatsiya xizmatlari**

 **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

 **Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

 **Noshirlik xizmatlari**

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar oyida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **90,2 %** ga yetgan.



2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**56,6
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**66,5
mlrd. so'm**

**2020- y.
yanvar**



**2021- y.
yanvar**

2021- yil yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **66,5** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,3** % ni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **110,6** % ni tashkil etdi.

228,3 %

O'sish sur'atlari, % da

110,6 %

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar oyida xizmatlar hajmi **56,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish **128,3** % darajasida qayd etilgan.



2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**

59,0

68,1

**2020- y.
yanvar**

**2021- y.
yanvar**



**O'sish
sur'ati, % da**

106,9

99,5

2020- yil yanvar oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **9,1** mlrd. so'mga ortdi.



2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar

84,1 %

15,9 %



16,2 %

83,8 %

2020- y. yanvar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **84,1 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilda ularning ulushi **83,8 %** ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y. yanvar

2021- y. yanvar

28,5
mlrd. so'm

**Xizmatlar
hajmi**

35,8
mlrd. so'm

106,2 %

**O'sish
sur'ati**

111,1 %

2,1 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

2,3 %






2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar oyida)



2021- yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **11,5 %** (2020- yilda – **11,6 %**) ni Qibray tumani tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Ohangaron va Piskent tumanlarida – **1,2 %** (2020- yilda – **1,2 %**) qayd etildi.



2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021 r.	2020 r.
Toshkent viloyati *)	1 567,9	103,9	109,7
<i>shaharlar :</i>			
Nurafshon	135,4	102,0	115,6
Olmaliq	104,1	106,0	101,6
Angren	77,7	105,9	104,7
Bekobod	63,9	102,3	103,6
Ohangaron	32,2	105,2	100,6
Chirchiq	176,2	101,0	142,6
Yangiyo'l	62,7	106,3	104,3
<i>tumanlar :</i>			
Oqqo'rg'on	33,8	102,5	102,5
Ohangaron	18,2	102,4	105,4
Bekobod	34,4	102,9	101,4
Bo'stonliq	106,1	104,8	124,3
Bo'ka	40,0	104,4	104,7
Quyi Chirchiq	21,8	103,6	104,0

*) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda



2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021 r.	2020 r.
Zangiota	127,2	105,4	105,0
Yuqori Chirchiq	50,0	105,8	106,9
Qibray	179,8	102,5	102,2
Parkent	52,7	107,4	107,7
Piskent	18,5	104,5	103,5
O'rta Chirchiq	44,2	103,0	100,3
Chinoz	35,5	100,7	109,1
Yangiyo'l	63,5	105,0	103,6
Toshkent	90,0	106,5	104,2



2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

528,3
ming so'm

62,3 ming
so'mga

2021- yil yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **528,3** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **102,3** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **466,0** ming so'mni tashkil etgan.

102,3 %

O'sish sur'ati



2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- fevral holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

**28 536
birlik**



**4 238
birlikga**

2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

117,4 %



61,5 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi






2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **61,5 %**, sanoat **18,9 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,8 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **7,8 %** ga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **61,9 %** ni, sanoat **19,5 %** ni, qurilish **7,7 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **10,9 %** ni tashkil etgan.




2021- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar




Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **71,5 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **56,4 %** ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.

Tel.: 71-202-86-72